

## O`ZBEKISTONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI VUJUDGA KELISHI

*Muhammadiyev Fazliddin Mahmudjon o`g`li  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Raqamli bank — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlarini masofaviy ko`rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo`linmasi. Ushbu maqola doirasida “**Uzum Bank**” AJ faoliyati misolida “Raqamli bank” tushunchasiga ta’rif berib o’tamiz hamda raqamli bank xizmatlarining ayni damdagi holati va bankning faoliyati tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan an’anaviy banklar va raqamli banklarning faoliyatini taqqoslash natijasida mamlakatimizdagi bank xizmatlarini rivojlantirish borasida xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so’zlar:** Raqamli banking, raqamli bank, mobil ilova, an’anaviy bank, aloqa markazlari, online kredit, online omonat

**Kirish.** Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzolangach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yana-da kengaytirish vazifasi yuklatilgan. Darhaqiqat, “raqamli bank” tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o‘z mijozlariga yana-da qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi. Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Uzumbank” dan tashqari “Anorbank” va “TBC bank”lar ham o‘z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to‘liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijoji 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya’ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta’mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

Apelsin ilovasi 2019 yil dekabrida mamlakatimiz moliya bozoriga chiqdi. “Kapitalbank” ATB loyiha uchun texnik, resurs va molivaviy baza sifatida ishtirok etmoqda. Ilova qisqa vaqt ichida bozor yetakchilari darajasiga ko‘tarilib, nafaqat bank ilovasi, balki “Kapitalbank” ATB mijozlari uchun ham, O‘zbekistondagi boshqa banklar mijozlari uchun ham keng ko‘lamli xizmatlarga ega to‘lov tizimi o‘rnini egalladi. To‘liq to‘lov xizmatiga aylanib, loyiha katta mijozlar bazasini to‘pladi: bugungi kunda apelsin ilovasi uzum mobile tarkibiga kirdi va uzum bank uni sotib oldi.

Google Play va App Store ma'lumotlariga ko'ra, Uzumdan 1 500 000 dan ortiq kishi foydalanmoqda.

Yangi Bank Uzum qanday ko'rinishga ega bo'ladi? Bu to'liq tarzda raqamli bank bo'ladi, bu yerda barcha ishlar va mijozlar bilan aloqalar zamonaviy texnologiyalar yordamida qurilgan. Masalan, mutaxassislar bilan maslahatlashuvlar mobil ilovadagi chatlarda, shuningdek, onlayn fikr-mulohaza shaklidan foydalangan holda amalga oshiriladi va ular Facebook va Instagram ijtimoiy tarmoqlari yoki Telegram messenjeri orqali zudlik bilan javob beradilar.

Uzumning yangi va amaldagi mijozlari uchun "Uzumbank" ATB mahsulotlari mavjud bo'lib, foydalanuvchilar "Uzumbank" ATB dan SMS-xabarnoma raqami va ilovada ro'yxatdan o'tgan raqami bir xil bo'lgan istalgan plastik kartani qo'shish orqali identifikatsiyadan o'tadilar. Tez orada Bank Uzum o'z foydalanuvchilariga jismoniy va yuridik shaxslar uchun o'zining moliyaviy yechimlarini taklif qiladi. Xususan, bu yechimlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- jismoniy va yuridik shaxs maqomidan qat'iy nazar, foydalanuvchilarni masofaviy tarzda identifikasiya qilish;
- omonatlarni rasmiylashtirish va boshqarish imkoniyati;
- onlayn mikrozaymlar va oylik ish haqi bo'yicha taqdim qilinuvchi kreditlar;
- shaxsiy marketpleysi ishga tushirish;
- o'z virtual kartalarini ochish (xohishga ko'ra, plastik tashuvchilar takrorlanishi ham mumkin);
- transchegaraviy o'tkazmalarni kengaytirish va ko'plab boshqa xizmatlar.

**Xulosa va takliflar.** Demak, moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalish bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ya'ni, raqamli banklarning istiqbollaridan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40-60 foizgacha pasaytirilishiga erishiladi. Mijozlar bankka tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablag'larini tejashiga imkon yaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o'zgarishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo bo'ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridaqgi raqamlar shundan darak beradiki, bank jadal rivojlanish va mijozga yo'naltirilganlik tamoyili asosida taklif etayotgan sifatli xizmatlari

mijozlar tomonidan keng qabul qilinmoqda va bank mijozlari soni kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa mamlakatimiz bank-moliya tizimida yangi raqamli bank tendensiyasi boshlanganligidan darak beradi. Shu sababli hozirda an'anaviy faoliyat yuritayotgan banklar ham raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishlari zamon talabiga aylanib bormoqda.

**REFERENCES:**

- 1) <https://depozit.uz/news/ozbekistondagi-raqamli-banklar-va-ularning-istiqbollari>
- 2) [https://www.kapitalbank.uz/uz/press\\_center/news/apelsin-mobil-ilovasi-endilikda-bank-sifatida-ish-faoliyatini-boshladi/?mobile=Y](https://www.kapitalbank.uz/uz/press_center/news/apelsin-mobil-ilovasi-endilikda-bank-sifatida-ish-faoliyatini-boshladi/?mobile=Y)
- 3) <https://uzumbank.uz/uz>